

**DARSLARDA NOAN'ANAVIY METODLARNING SAMARADORLIGI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6192544>

Yunusova Feruza Safarovna

Sirdaryo tuman 5-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotasiya: *Ta'lism jarayonida nisbatan yangi yo'naliш — interfaol ta'lism, darslarda noan'anaviy metodlar, uning umumiy xususiyatlari va didaktik imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. O'quv muloqoti axborot-kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda darslarda muloqotni amalga oshirishning interfaolligini va uslubiy jihatlarini ta'minlashning asosi sifatida o'rganiladi.*

Boshlang'ich ta'lism jarayonida noan'anaviy metodlardan foydalanish, ularning maqsad va vazifalari, o'qitishning interfaol metodlari, turli fanlar bilan bog'liqligi, ta'lism texnologiyasining nazariy va amaliy asoslarini yoritish, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish,

barkamol shaxsni tarbiyalashda o'sib kelayotgan yosh avlodni ijodiy qobiliyatini aniqlash, noan'anaviy metodlar orqali mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish haqida firk yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Noan'anaviy metodlar, AKT, texnik vositalar, umumiy ta'lism, test*

Barkamol avlodni tarbiyalash – “Ta'lism to'g'risdagi” Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dastiri”da Respublika ta'lism xodimlari zimmasiga o'ta ma'suliyatli vazifalar yuklangan. Bu vazifani amalga oshirish jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qishiga yangicha yondashish, o'qituvchilarni o'z kasbiga va tarbiyalanuvchilarga o'ta ma'suliyatli munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Bu dastur yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy, ijtimoiy faoliyatka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to'g'ri yo'l topa olish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lism va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi.

Prezident Shavkat Mirziyoevning 29-apreldagi farmoni bilan Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi va uni joriy yilda amalga oshirish uchun yo'l xaritasi tasdiqlandi. Yo'l xaritalari har yil uchun alohida qabul qilinadi. O'zbekistonning 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ko'zda tutilgan.



Mamlakatning ertangi kuni esa, dunyoqarashi keng maktab bolalari va zamonaviy, salohiyatl o'qituvchi-murabbiylarga ko'p jihatdan bog'liqdir. O'quv-tarbiya ishlari jarayonida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda ularning amaliy mashg'ulotlarda pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari ta'lif-tarbiya islohati, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga erishish mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Bugungi kunda zamonaviy dars samarali bo'lishi kerak unda: O'qituvchi bugun o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni amalgalash oshira oladigan. O'qituvchi halollik va fidoiylik fazilatlarni o'zida mujassam etishi o'qituvchi o'quvchi ko'z o'ngida chinakam sobiq hayot ta'lmini beruvchi ustoz sifatida namoyon bo'lishi zarur.

Noan'anaviy ta'lif metodlari dars jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Bunday metodlarga asoslangan ta'lif jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'lifni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uni pedagogik texnologiyalarni ta'lif jarayoniga mohipona tadbiq eta olishi, ta'lifning yangi-yangi yo'l va usullarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Noan'anaviy metodlardan foydalanishni ta'lif jarayonida tadbiq qilish hozirgi davr talablaridan biri hisoblanadi.

Noan'anaviy metod texnologiyasi-muayyan muddatga mo'ljallangan ta'lif jarayon markazida o'quvchi shaxsi bo'lib, o'qitishning zamonaviy shakli, faol o'qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini ta'lif-tarbiya ishidan ko'zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltirishdir.

Noan'anaviy metodlardan "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Davra suhbati", "Rolli o'yinlar", "Zig-zag", "Charxpak", "Muammoli vaziyat", "Babs-munozara", "Pinbord", "3x4", "Konvert", "FSMU", "Assesment", "Sinkveyn", "Diqqat", "Venn diagrammasi", "Baliq ovi", "Raketa", "To'g'ri-noto'g'ri", "Mo'jizalar maydoni", "So'zdan so'z yasash", "Ustunchalar", "Kim g'olib", "Muhokama", "Suhbat", "Amaliy mashg'ulot", "T-chizmasi", "BBS", "Rasmlidamino", "Nima o'zgardi". "Aksincha" va hokazo.

Keling noan'anaviy metodlarning samaradorligini ko'rib chiqaylik:

1.O'quvchilarning mashg'ulotlardagi faollahuvi va bundan kelib chiqib bilim olish samarasining oshishi;

2.O'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirishi, hamkorlik yuzaga kelishi;

3.O'qituvchining nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiya-ishtiyuoqni vujudga keltiradi.

4.O'qituvchi va o'quvchi vaqtadan to'g'ri va unumli foydalanishi;



5.Yangi mavuzning keng hajmda o'rganilishi va o'zlashtirilish samaradorligi oshishi;

6.O'quvchilarning bilim darajalarini har tomonlama va majmuali tekshirib ko'rishi imkon mavjudligi;

7.O'quvchilarning faolligi oshib,ilmga bo'lgan e'tibori va qiziqishi kuchayadi.

8.Topshiriqlarni amaliy tekshirib ko'rish va vazifani bajarishga ijodiy yondashishi;

9.O'quvchining o'zini qiziqtirgan savollarga javob topishga harakat qilishi va ijodiy izlanishi;

10.Guruhlarda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllanishi

11.Bilimi past o'quvchilarning bilimdan o'quvchilarga ergashib, aralashib ketishi;

12.O'quvchilar vaziyatni tezda baholay olish va hozirjavob bo'lism ko'nikmalariga ega bo'lib borishi;

13.Mustaqil fikrlay oladigan o'quvchilarning ko'payib boprishi;

14.O'quvchida o'zgalar fikrini tinglay olish ko'nikmasini hosil bo'lishi;

15.O'quvchi o'z fikrini himoya qilishi;

16.Bildirilgan fikrlarni umumlashtirish ko'nikmasi paydao bo'lishi;

Bundan tashqari quyida bir nechta harakatlari mashqlarni misol qilib keltirishimiz mumkinki,natijada darslar ancha qiziqarli va noan'anaviy bo'ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki uzlusiz ta'limda pedagogik faoliyat nazariyasi va metodikasining ishlab chiqarilganligi shunga olib keladiki, o'qituvchi bolalar bilan, pedagogik jamoa bilan qanday qilib til topish o'rtaсидаги munosabatlarning haqiqiy manzarasiga erishmoq kerak. Lug`atlarda mohirlilik - bu insonning hayotiy tajriba va o`zlashtirilgan bilimlari asosida aniq va ongli ravishda amaliy va nazariy ishlarni tez va samarali bajarishga tayyor bo`lishi, o`z ishiga mahorat bilan yondoshish e'tirof etiladi.

Demak, uzlusiz ta'limda pedagogik faoliyatda o`qituvchining mohirligi bilan mahorati hamohangdir. O`qituvchining o`z ishiga mohirligi uning ijodiy imkoniyatlari, extiyojlari hamda qobiliyatlarini chegara bilmaydigan rivojlanishi sifatidagi xususiyatidir. O`qituvchining mahorati uning faoliyati jarayonida namoyon buladi.

Pedagogik faoliyatda o`qituvchining mahorati uning samarali natijalarga erishishi, pedagogik faoliyatining yuqori darajasi sifatida tushuniladi. O`qituvchining pedagogik mahorati - bu ta'lim-tarbiya san'atining yuqori va doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib boradigan san'atidir. Mahorat turli xil pedagogik masalalarni samarali echishda, shuningdek, o`quv-tarbiyaviy ishlarni talab darajasida tashkil etish jarayonida namoyon buladi. Lekin bu mahoratning mazmuni ushbu faoliyatlarini vujudga keltiradigan o`qituvchining shaxsiy sifatlari bilan boglik. Demak, pedagogik mahoratning mazmunini chuqur anglash uchun dastavval pedagogik faoliyat nima ekanligini tushunib olmog`imiz lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki darslari pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilsa, o`quvchi-o`qituvchi munosabati o`rnataladi, qo`rquv, hadiksirash, ishonchsizlik chekinadi, o`quvchi uchun tenglik, erkinlik vaziyati tug`iladi. O`quvchining o`z kuchi,



imkoniyatini ochishga sharoit yaratib, ochilmagan qirralari ochiladi, o`qishga havas ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.М.Э.Жумаев, М.Ю.Юлдашева, Б.У.Мингбаева, Г.А.Маматова “Бошланғич таълимни ўқитишда замонавий ёндашувлар ва инновациялар” методик услубий қўлланма – Т.: 2017 й.
- 2.O’quvchi shaxsini rivojlantirishga yo’naltirilgan ta’lim.I-modul-Toshkent-2013.
- 3.Boshlang’ich ta’limni o’qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar moduli bo’yicha o’quv-uslubiy qo’llanma.Toshkent-2018
4. <http://www.ziyor.net.uz>. - ахборот таълим портали
5. [HTTP://WWW.Fikr.uz.Qarashlar.Shaxs_va_jamiyat](http://WWW.Fikr.uz.Qarashlar.Shaxs_va_jamiyat).
6. [HTTP://WWW.SHUHRATBEK.UZ](http://WWW.SHUHRATBEK.UZ) shaxsiy blok
7. <http://uchquduq.20-maktab.uz/> rasmiy veb sayti
8. [HTTP://WWW.BAXTIYOR.UZ](http://WWW.BAXTIYOR.UZ) shaxsiy rivojlanish
9. <https://www.mana.uz/>
10. <https://review.uz/uz/post/2020-god-stanet-povorotniym-v-molodejnoy-politike-shavkat-mirziyoev>
11. [HTTP://WWW.KUN.uz](http://WWW.KUN.uz).